



## QASHQADARYO VILOYATI SANOAT KORXONALARINING O‘SISH DINAMIKASIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING TAHLILI, PRAGNOZ VARIANTLARI.

**SATTOROV FIRDAVS ZIYODULLAYEVICH**

*Qashqadaryo viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar  
bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati mudiri.*

[firdavss1717@gmail.com](mailto:firdavss1717@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmiga ishlab chiqarish omillari ta’sirini qarab chiqildi. Buning natijasida ishlab chiqarish omillarini prognoz qiymatlarini turli ekonometrik modellar asosida amalga oshirgan holda ularga mos keluvchi sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlandi.*

**Kalit so‘zlar:** *sanoat, mahsulot, model, ekonometrik, sektor, grafik, regression, kapital.*

**Анотация:** *В данной статье рассмотрено влияние производственных факторов на объем продукции, вырабатываемой промышленными предприятиями Кашкадарьинской области. В результате этого прогнозные показатели объема производства, разработанные соответствующими промышленными предприятиями, определялись на основе прогнозных значений факторов производства на основе различных эконометрических моделей.*


**Ключевые слова:** *промышленность, продукт, модель, эконометрический, сектор, график, регрессия, капитал.*



**Abstract.** In this article, the effect of production factors on the volume of products developed by industrial entities in Kashkadarya region was considered. As a result of this, the forecast indicators of the production volume developed by the corresponding industrial entities were determined based on the forecast values of the production factors on the basis of various econometric models.

**Key words:** industry, product, model, econometric, sector, graph, regression, capital.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor konyunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozoridagi muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.



**1-rasm. 2023 yilda Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarining o'sish  
dinamikasi.**



Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2023-yilda jami sanoat korxonalari 6113 tani tashkil qiladi. Shundan qurilish sanoati korxonalari soni 1042 ta yoki jami sanoat korxonalarining 17,0 foizini, mebel sanoati korxonalari soni 334 tani yoki jami sanoat korxonalarining 5,5 foizini, rezina va plastmassa sanoati korxonalari soni 108 tani yoki jami sanoat korxonalarining 1,8 foizini tashkil qiladi. Tumanlar kesimida, jumladan, Kitob tumanida jami sanoat korxonalari 619 ta bo'lib, shundan 127 ta qurilish sanoati korxonalari, 26 ta mebel sanoati korxonalari va 12 ta rezina va plastmassa sanoati korxonalari mavjud (1-jadval).

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyatida qurilish sanoati, mebel sanoati, rezina va plastmassa sanoati korxonalarining sondagi ulushi.**

| <b>№</b> | <b>Tuman, shahar</b> | <b>Qurilish sanoati</b> | <b>Qurilish sanoati (foizda)</b> | <b>Mebel sanoati</b> | <b>Mebel sanoati (foizda)</b> | <b>Rezina va plastmassa sanoati</b> | <b>Rezina va plastmassa sanoati (foizda)</b> |
|----------|----------------------|-------------------------|----------------------------------|----------------------|-------------------------------|-------------------------------------|----------------------------------------------|
| 1        | G'uzor               | 107                     | 23,8                             | 16                   | 3,6                           | 3                                   | 0,7                                          |
| 2        | Dehqonobod           | 16                      | 9,6                              | 7                    | 4,2                           | 1                                   | 0,1                                          |
| 3        | Qamashi              | 72                      | 20,0                             | 15                   | 4,2                           | 4                                   | 1,1                                          |
| 4        | Qarshi               | 93                      | 20,5                             | 43                   | 9,5                           | 12                                  | 2,6                                          |
| 5        | Koson                | 50                      | 15,6                             | 14                   | 4,4                           | 3                                   | 0,9                                          |
| 6        | Kitob                | 127                     | 20,5                             | 26                   | 4,2                           | 12                                  | 1,9                                          |




|    |                |             |             |            |            |            |            |
|----|----------------|-------------|-------------|------------|------------|------------|------------|
| 7  | Mirishkor      | 37          | 17,5        | 9          | 4,2        | 2          | 0,9        |
| 8  | Muborak        | 22          | 15,4        | 5          | 3,5        | 3          | 2,         |
| 9  | Nishon         | 27          | 14,9        | 7          | 3,9        | 4          | 2,2        |
| 10 | Kasbi          | 29          | 11,2        | 13         | 5,0        | 1          | 0,4        |
| 11 | Ko'kdala       | 29          | 15,1        | 6          | 3,1        | 5          | 2,         |
| 12 | Chiroqchi      | 46          | 13,4        | 10         | 2,9        | 4          | 1,2        |
| 13 | Shahrisabz     | 81          | 24,1        | 21         | 6,3        | 7          | 2,1        |
| 14 | Yakkabog'      | 133         | 24,4        | 28         | 5,1        | 13         | 2,4        |
| 15 | Qarshi sh.     | 121         | 10,8        | 93         | 8,3        | 24         | 2,2        |
| 16 | Shahrisabz sh. | 52          | 12,5        | 21         | 5,0        | 10         | 2,         |
|    | <b>Jami:</b>   | <b>1042</b> | <b>17,0</b> | <b>334</b> | <b>5,5</b> | <b>108</b> | <b>1,8</b> |

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2023-yilda jami sanoat korxonalari 6113 tani tashkil qiladi. Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat korxonalari soni 30 tani yoki jami sanoat korxonalarining 5,0 foizini, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati korxonalari soni 539 tani yoki jami sanoat korxonalarining 8,8 foizini, metallurgiya sanoati korxonalari soni 78 tani yoki jami sanoat korxonalarining 1,3 foizini tashkil qiladi. Tumanlar kesimida,




jumladan, Kitob tumanida jami sanoat korxonalari 619 ta bo'lib, 174 ta tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat korxonalari, 45 ta mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati korxonalari, 6 ta metallurgiya sanoati korxonalari mavjud (1-jadval).

Qashqadaryo viloyatida 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda sanoat korxonalari soni ko'payib bormoqda. Bu jarayon kelgusi yillarda ham o'sib borishi kutilmoqda (2-rasm).



**2-rasm Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarining o'sish dinamikasi.**

Quyidagi grafikda shuni ko'rish mumkinki, Qashqadaryo viloyati sanoat rivojlanib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, tumanlarda ham sanoat korxonalari soni o'sib bormoqda. Xususan, Kitob tumaniga 2019-yilda sanoat korxonalari 407 tani ko'rsatayotgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 50 foizga oshib, 619 ta korxona faoliyat yuritib kelmoqda (3-rasm).



### **3-rasm.Kitob tumani sanoat korxonalarining o'sish dinamikasi.**

2019-yilda Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan jami sanoat korxonalari soni 3479 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 6113 taga yetdi. 2023-yilga kelib sanoat korxonalari soni 2019-yilga nisbatan qariyb 76 foiz o'sganini ko'rish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. "Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 345-352.
2. Kichik korxonalar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy elementlarining mutlaq o'zgarishini hisoblash, samaradorlikning nisbiy qiymatlarini, xususan rentabellikni hisoblash va talqin qilishni ta'minlaydigan soddalashtirilgan tahlil shakli bilan cheklanishi mumkin.
3. Молиявий ҳисобот таҳлили. Дарслик. / М.Ю.Рахимов; – Т.: “ИқтисодМолия”, 2021.



4. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. "Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts." International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
5. Норқобилова, Ф. А. "ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ, СИНТЕЗЛАШ ВА ОПТИМАЛЛАШТИРИШ." International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.
6. Norqobilova, Feruza Abduhomidovna. "MILLIY IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANISH YO 'NALISHLARI." THE INNOVATION ECONOMY 1.04 (2023).
7. Tashkilotning moliyaviy natijalarini tahlil qilish muammolari to'g'risida / O. A. Romanova / fanlarning sinergiyasi. — 2021.
8. Moliyaviy tahlil. Darslik. / B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.SH.Xajimuratov, R.B.Xasanova; – T.: “Iqtisodiyot”.